

## AFSUNGAR

(Hikoya)

Kunlardan bir kuni kechqurun charchab-horib, ruhim cho'kib uyga qaytayotgan edim, professor (shunday deyishadi, biroq qanday professorligi noma'lum) Skyassi oldimdan chiqib qoldi. Bu odamni men ko'pdan buyon bilaman. Turli joylarda tez-tez va kutilmaganda ko'rinish berib qoladi. O'zi uqtirishicha, biz gimnaziya birga o'qigan emishmiz. Biroq, to'g'risini aytsam, buni men eslayolmayman.

Kim o'zi u? Nima ish qiladi? Hech qachon buning tagiga yeta olmaganman. Uning ozg'in-qotma, yovqur yuzi bilan miyig'idagi istehzoli tabassumi... Biroq eng o'ziga xos jihati shundaki, u har qanday odamda "Men bu kishini qaerdadir ko'rganman" degan yanglish tasavvur uyg'otadi. Ba'zilar uni afsungar deb qat'iy ishonishadi.

– Qalay? – so'radi u mendan taomildagi salom-alikdan so'ng. – Haliyam yozyapsanmi?

– Boshqa nimayam qila olardim, – daf'atan nochor-notavon holimni his qilib yelka qisdim.

– Nima, joningga tegmadimi? – hujumni kuchaytirdi u. Ko'cha chirog'ining xira yorug'ida yuzidagi masxaraomuz kulgi ko'rinish turar edi. – Bilmayman, men ba'zan o'ylab qolamanki, go'yo siz yozuvchilar kundan kunga hech kimga kerak bo'lmay qolyapsizlar. Nafaqat yozuvchilar, balki rassomlar, haykaltaroshlar, bastakorlar ham. Quruq ovoragarchilikka, shunchaki o'yinga o'xshaydi. Nima demoqchi bo'layotganimni tushunyapsanmi?

– Tushunyapman.

– Yozuvchilar, rassomlar va shu kabilar, hammalaringiz e'tibor qozonishni istab tuturiqsizroq va chalkashroq yangilikni kashf qilishga jon-jahdingiz bilan urinasizlar. Muxlislaringiz o'zi ko'p emas, borlarining ham ko'ngillari sizga nisbatan tobora sovib ketyapti. Odamlar aytmoqchi bo'layotgan gaplaringizni qariyb mutlaqo eshitmay qo'yyapti. Kunlardan bir kuni, ochig'ini aytganim uchun kechirasam, sizlar o'zlarining sahroning qoq o'rtasida ko'rasizlar.

– Bo'lishi mumkin, – dedim men itoatkorlik bilan.

Biroq Skyassi, aftidan, meni qiynamoqchiga o'xshardi.

– Menga yana shuni ayt-chi, masalan, sen biron mehmonxonaga kirganingda oti-zoting bilan kasbi-koringni so'rashdi deylik. O'shanda sen "yozuvchiman" deb javob qaytarganingda, bu senga allanechuk bema'nidek tuyulmaydimi?

– Ehtimol, – dedim men. – Frantsiyada unday emasdir, lekin bizda aynan shunaqa.

– Yozuvchi, yozuvchi! – oshkora kalaka qildi u. – Nima, sen hali o'zingni jiddiy qabul qilishlarini istaysanmi? Bizning dunyomizda yozuvchi deganlari kimga nima uchun kerak?.. Mug'ombirlik qilmay yana bir gapni ochiq ayt-chi... Sen kitob do'koniga kirib, rastalarga qaraganingda...

– Devorlar bo'ylab to shipga qadar tizilishib turgan turli-tuman kitoblar, keyingi oylarning o'zidayoq yorug'lik ko'rgan minglab-minglab kitoblar... shularga ishora qilayotgan bo'lsang kerak, a?.. Qarab turib, bularga qo'shimcha men ham yana bir kitob yozyapmanmi deb o'ylayman-da, qo'lim ishga bormay qoladi. Bir necha chaqirimga cho'zilib ketgan, tog'-tog' bo'lib uyulib yotgan sarxil mevalaru sabzovotlarga boy ulkan bozorda so'ligan sabzini sotish umidida turgan bolakayga o'xshataman o'zimni... Dilingdagini topdimmi?

– Xuddi shunday! – Skyassi masxaraomuz tirjaydi.

– Hayriyatki, – e'tiroz bildirishga jur'at qildim, – o'qiydiganlar hali bor, bizning kitoblarni sotib oladiganlar yo'q emas.

Shu payt, ta'bir joiz bo'lsa, qadrdomim andak engashib, poyabzalimni sinchiklab ko'zdan kechira boshladi.

– Yaxshi etikdo'z oshnang borgan o'xshaydi-ya?

Xudoga shukur, o'yladim o'zimcha, har qalay, suhbatimiz boshqa mavzuga ko'chdi-ku. O'zing haqingdagi achchiq haqiqatni eshitishdan og'irroq nima bor bu olamda?

– Ajoyib usta! – bajonidil javob qildim men. – Qo'li gul usta. Shunaqangi yaxshi, shunaqangi

pishiq-puxta tikadiki, tikkani hech to‘zmaydi-da!

– Yasha! – xitob qildi bu ablah. – Garov o‘ynaymanki, u sendan kamroq pul topadi.

– Ehtimol.

– Nima, seningcha bu o‘taketgan mantiqsizlik emasmi?

– Bilmadim, – javob qildim men. – To‘g‘risini aytsam, men bu xususda o‘ylab ko‘rmagan ekanman.

– Meni to‘g‘ri tushun, – battar avj qildi Skyassi, – sen yozgan hamma narsalar menga mutlaqo yoqmaydi demoqchi emasman, yo‘q, shaxsan senga hech bir e‘tirozim yo‘q. Biroq sen va senga o‘xshagan minglab odamlar o‘z umrlaringizni hayotda hech qachon bo‘lmagan tarixlarni yozib o‘tkazasizlar. Buning ustiga, ularni yorug‘likka olib chiqadigan noshirlar ham topila qoladi. Sotib oladigan odamlar ham topiladi. Sizlar shu yo‘l bilan dasta-dasta pul topasizlar. Gazetalar ular haqida yozishadi. Munaqqidlar ularga son-sanoqsiz tadqiqotlarini bag‘ishlaydi. Bu tadqiqotlar ham o‘z navbatida nashr etiladi-da, do‘konlarda muhokama qilinadi... Birinchi satridan to oxiriga qadar bichib-to‘qilgan uydirma tarixlar! O‘ylaymanki, hatto sening o‘zingga ham bularning bari o‘taketgan aqlsizlik bo‘lib tuyulsa kerak? Tag‘in bu atom bombalari-yu, sun‘iy yo‘ldoshlar asrida!.. Seningcha, bu masxaravozlik hali uzoq davom etadimi?

– Bilmadim. Balki sen haqdirsan, – dedim men, yuragim misli ko‘rilmagan darajada huvillab.

– Xo‘sh, o‘zing ayt, sizlar kimga keraksizlar? – tantana qildi Skyassi – Adabiyot, san‘at – chiroyli, balandparvoz so‘zlar! Ammo bizning davrimizda san‘at ham ovqat, atir, sharobga o‘xshagan oddiygina kundalik iste‘mol mahsulotlaridan boshqa narsa emas. Bugungi kunda odamlarni qanday san‘at qiziqtiriyapti? Qanday shiddatli to‘lqin ustimizga bostirib kelayotganini o‘zing ko‘rmayapsanmi?.. Yengil-elpi qo‘shiqlar, she‘rchalar, shovqin-suron, dod-voy, oldi-qochdi! Mana, shon-shuhrat qaerda! Mana, aqalli seni olib qaraylik: aqlli narsalarni yozasan. Hatto zo‘r narsalar deyish mumkin. Biroq omad haqida gapiriladigan bo‘lsa, bu borada eng iste‘dodsiz jaz qo‘shiqchisi seni bir cho‘qishda qochiradi. Odamlarga qo‘pol bo‘lsa-da, ayni lahzalarda bevosita hissiy qoniqish paydo qiladigan narsalar kerak, darrov, bir lahzalik, tushundingmi? Shunday narsalarki, toki zig‘ircha ham kuch sarflanmasin, ortiqcha zo‘riqilmasin, mutlaqo bosh qotirilmasin.

Men gaping to‘g‘ri degan ma‘noda bosh irg‘ab turdim, xolos. E‘tiroz bildirishga na kuchim, na dalilim bor edi. Biroq Skyassiga bu ham kam edi.

– Bundan qirq yilcha avval san‘atkor taniqli shaxs bo‘lishi mumkin edi. Biroq endiga kelib... Agar qandaydir eski-tuski, almisoqdan qolgan narsalargina o‘zlarini omon saqlab qololmasalar. Masalan, deylik, Xeminguey, Stravinskiy, Pikasso, bobolarimiz bilan bobokalonlarimizning yaratganlari... Yo‘q-yo‘q, siz allaqachon yutqazib bo‘lgansiz... Sen abstrakt san‘at ko‘rgazmasida bo‘lganmisan? Uni munaqqidlar qanday tushuntirishlarini o‘qiganmisan? Safsata, uchiga chiqqan safсата! Amal-taqal jon saqlab qolgan bir hovuch nodonlar, tag‘in o‘zlari chaplab tashlagan bo‘yoqlarini million, hatto ikki millionga sotishni uddalashganlariga hayron qolasan kishi. So‘nggi alahsirash bu, men senga aytsam, o‘lim oldidagi jon talvasasi bu! Siz san‘atkorlar bir tomonga qarab ketyapsizlar, kitobxon bilan tomoshabin bo‘lsa, butunlay qarama-qarshi tomonga ketyapti. Bundan chiqdi, bir-biringizdan tobora uzoqlashyapsizlar. Shunday kun keladiki, o‘rtalaringizdagi masofa shu qadar olis bo‘ladiki... Siz qanchalik baqirib-chaqirib ayuhannos solmang, lekin bironta it sizning ovozingizni eshitmaydi.

Ayni shu topda goho sodir bo‘lib turadigan voqea ro‘y berdi: iflos ko‘cha bo‘ylab nimadir yelib o‘tdi. Nimaligi noaniq – mayin shabada emas, chunki havoda hech bir o‘zgarish sezilmadi, muattar atir isi emas, chunki atrofimizda o‘sha-o‘sha benzin va yana allambalo achimsiq narsalar hidi anqirdi, yoqimli kuy emas, chunki mashinalar shovqinidan boshqa hech nima eshitilmas edi. Nimaligi noma‘lum – muqaddas tuyg‘ular va xotiralarning junbishga kelishimi, qandaydir izohlab bo‘lmaydigan bir sir-sinoat.

– Lekin baribir... – dedim men.

– Nima “lekin baribir”? – Skyassining yuzida zaharxanda zuhur bo‘ldi.

– Lekin baribir biz qo‘limizdan kelgancha yozayotgan tarixlarni hech kim o‘qishni xohlamay qolganida, ko‘rgazmalar butkul kimsasiz bo‘lib huvillab qolganida, cholg‘uchilar o‘z asarlarini

bo‘m-bo‘sh o‘rindiqlar qatorlariga ijro etganlarida ham... ana o‘sha taqdirida ham bizning ijodimiz... yo‘q, men o‘zim haqimda emas, men qilgan ish bilan shug‘ullanadiganlar haqida...

– Qani-qani, namuncha bo‘shashmasang! – istehzo bilan qitiq patimga tegishda davom etdi birodarim.

– Shuni bilib qo‘yki, sen aytayotgan o‘sha tarix, rasm, musiqa, boshqa ahmoqona, tushunarsiz va foydasiz narsalar hamisha insoniylikning eng oliy ifodasi, asl umumbashariy qadriyatlar bo‘lib qolaveradi.

– Qo‘y, meni qo‘rqitma! – xitob qildi Skyassi.

Lekin men, bilmadim, nima uchun, endi o‘zimni to‘xtata olmas edim. Ich-ichimda toshayotgan isyon tashqariga yo‘l qidirar edi.

– Ha-ha! Mayli, sen buni ahmoqlik deb hisoblashing mumkin, biroq haqiqiy san‘at hamisha bizni moldan farqlab turuvchi narsa bo‘lib qolaveradi. Bu yerda foydali yo foydasiz ekanligi ahmiyatli emas. Ehtimolki, butkul foydasizligi uchun ham bizga juda-juda kerakdir. Atom bombasi, sun‘iy yo‘ldoshlar, yulduzlar—aro raketalardan ham ming karra kerakroq! Ayni shu ahmoqlik butkul tugab bitgan o‘sha qaro kunda odamlar ibtidoiy jamoa davridagidek ayanchli bir mahluqqa aylanib qoladilar. Chunki chumolilar ini bilan eng yangi texnikaning har qanday mo‘jizasi o‘rtasidagi masofa chumolilar inini insoniy jamiyatdan ajratib turuvchi masofaga nisbatan ming karra qisqaroq!..

– Sen, masalan, o‘n satrlik almoyi-aljoyi syurrealistik she‘rni nazarda tutyapsanmi? – achchiq kulib so‘radi Skyassi.

– Ha, hattoki bir qarashda mutlaqo aqlga sig‘maydigan, hatto besh satrlik she‘rni ham nazarda tutib aytyapman bu gapni! Muhimi – odam bolasining yozish ishtiyoqida, bu ishidan biron natija chiqadimi-yo‘qmi – bu u qadar muhim emas. Ehtimol men adashayotgandirman, ammo faqatgina shu yo‘lda najot bor. Agarda...

Ana shunda Skyassi og‘zi qulog‘iga yetgudek xursand bo‘lib uzoq kuldi. Qiziq, bu kulgisi endi mutlaqo yoqimsiz emasdi. Men taajjubdan dong qotib qoldim.

U yelkamga qattiq qoqib qo‘ydi:

– Ana endi o‘zingga kelding, tentakvoy.

– Tushunmadim, nima demoqchisan? – ajablanib so‘radim men.

– Hech nima, hech nima, – javob qildi Skyassi va ozg‘in-qotma yuzi qandaydir ichki bir yorug‘likdan nurlanib ketdi. – Qarasam, hamma narsadan hafsalang pir bo‘lib bo‘shashibgina kelyapsan. Go‘yo hech nimaga ixlosing qolmagandek. Shuning uchun seni qattiqroq bir silkitib ko‘rgim keldi-da.

Haq-rost. Nima bo‘lganda ham, men o‘zimni butunlay boshqa odam deb his qilmoqda edim: bir qadar emin-erkin, o‘ziga ishonchi mustahkam... Men tamaki tutatgunimcha Skyassi ruhdek daf‘atan ko‘zdan yo‘qoldi.

**Rus tilidan OTAULI tarjimasi  
«Sharq yulduzi» jurnalining 4-sonidan olindi.**